
DEHQON BOZORIDA

Barchamiz orziqib kutgan yangi yil bayramiga ham sanoqli kunlar qolmoqda. Qo'shtepaliklarning bayram dasturxoni to'kin bo'lishini ta'minlash maqsadida, tumandagi dehqon bozorida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdo-yarmarkalari tashkil etildi. Ushbu yarmarkada go'sht mahsuloti arzonlashtirilgan narxda, bir kilogrami 50 ming so'mdan sotilmoqda.

Shuningdek, tuman hokimligi va dehqon bozori ma'muriyatining tashabbusi bilan haftaning payshanba va yakshanba kunlari archa atrofida teatrlashtirilgan ko'rinishlar namoyishi bo'lib o'tmoqda. Albatta bu tadbirlar tumanimiz aholisini bayramni ko'tarinki ruhda o'tkazishlari uchun tashkillandi.



2020-12-11 10:36:03